

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

JOPAPS




JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume 1, Issue 4

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 4-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-4>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Педагогика фанлари

QORIYEV Mirzohid Rustamjonovich

*Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

UBAYDULLAYEVA Muhlisa Ma'murjon qizi

*Namangan davlat universiteti
iqtidorli talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7841393>

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИГА ТАБИАТНИ ТАНИШТИРИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini tabiat bilan tanishtirish, shuningdek, boshlang'ich biologik bilimlarini oshirish bo'yicha samarali usullar haqida ma'lumotlar, tavsiya va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: bog'cha tarbiyalanuvchilari, tabiat, o'simliklar, hayvonlar, jonli tabiat burchagi, tabiat bilan tanishtirish usullari.

EFFECTIVE METHODS OF INTRODUCING NATURE TO CHILDREN OF PRESCHOOL EDUCATION

ANNOTATION

This article provides information, recommendations and suggestions on effective methods of introducing nature to kindergarten children, as well as improving their basic biological knowledge.

Key words: Kindergarten children, nature, plants, animals, living nature corner, ways to introduce nature.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПРИОБЩЕНИЯ К ПРИРОДЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация, рекомендации и предложения по эффективным методам приобщения детей детского сада к природе, а также совершенствования их базовых биологических знаний.

Ключевые слова: Дети детского сада, природа, растения, животные, уголок живой природы, способы приобщения к природе.

Hozirgi kunda insoniyat o'z faoliyati davomida tabiatga ijobiy va shu bilan bir qatorda salbiy ta'sir ham ko'rsatib kelmoqda. Natijada tabiat boyliklari bo'lmish – yer, suv, havo nihoyatda ifloslanib, ayrim o'simlik hamda hayvonot olami vakillari butunlay qirilib ketmoqda va bu jarayon davom etmoqda. Buning isboti tariqasida aytish mumkinki, o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, agar mavjud atrof-muhit sharoitlari o'zgarishda davom etsa, 2050-yilga borib biologik xilma-xillikning 6-10%i yo'qolishi kutilmoqda. Xuddi shu tendentsiya davom etsa 2100-yilga kelib bu ko'rsatkich 13-27% gacha yetishi taxmin qilinmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, 2050 yilga kelib har 10 turdan biri, 2100 yilga kelib esa har 10 turdan ikkitasi yo'q bo'lib ketishi mumkin [1, 2].

Shu sababli tabiatni asrash, uning zahiralardan oqilona foydalanish ayni paytda asosiy masaladir. Buning uchun yosh avlodni ona tabiatni asrab avaylash ruhida tarbiyalash, ya'ni, atrof-muhitga bo'lgan muhabbatini shakllantirish, tabiat ne'matlarini isrof etmay foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish juda zarurdir.

O'sib kelayotgan kelajak avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati kattadir [3].

Ya'ni, yosh avlodni tabiat orqali – aqliy, axloqiy, jismoniy, ekologik va iqtisodiy tarbiya berish lozim. Ayniqsa, Tabiatni asrab avaylash, unga ziyon yetkazmaslik, atrof muhitga nisbatan e'tiborli bo'lish va qo'pol munosabatda bo'lishni oldini olish uchun ta'lim va tarbiyaning ilk bosqichlaridan boshlab ekologik madaniyatni rivojlantirishga kirishish kerak. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik savodxonligini oshirish masalasi juda dolzarb bo'lib bormoqda [4].

Aynan shu masalani maktabgacha ta'lim muassasalarida boshlash maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ekologik savodxonligini oshirish maqsadida bolalarni tabiat bilan tanishtirish zarur. Hosil qilingan bilimlar asosida yosh bolalarda tabiat hodisalarini aniq tushina bilish, qiziquvchan bo'lish, kuzata bilish, mantiqan fikr yurita bilish, tirik narsaga zavq-shavq bilan qarash kabi fazilatlar shakllanib boradi. Bu esa bolalarda tabiatga muhabbat, tabiat boyliklarini ardoqlash kabi yaxshi fazilatlar shakllanishiga imkon beradi [5].

Tabiat - bu organik (tirik) va noorganik (notirik) dunyoni o'zida qamrab olgan, g'oyat xilma-xil shakllari, tarkibiy qismlari bilan insoniyatni qurshab turgan organik va anorganik olamlar majmuasidir [6].

Boshqa ta'rifga ko'ra, tabiat – kishilarning moddiy va ma'naviy talablarini qondirish manbayidir. Tabiat deganda ko'pincha olamning, moddiy dunyoning bir qismi tushuniladi. Odam hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan hamma narsani (masalan: oziq-ovqat, suv, kiyim-kechak, binokorlik materiallari, foydali qazilmalar va b.) tabiatdan oladi [7].

Bolalarni mana shu tabiat bilan tanishtirish o'z navbatida tabiat bilan o'zaro munosabatda bo'lishni talab etadi.

Yoshlarni tabiat bilan tanishtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilardir:

- bolalarni o'z o'lkasini sevishga o'rgatish;
- tabiat bilan tanishtirish orqali bolalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish;
- bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish;
- o'zi, tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish;
- bolalarning hissiyotini, irodasini rivojlantirish;
- tabiat in'om etgan nematlarni avaylab asrashga o'rgatish va b.

Yuqorida ta'kidlangan maqsadlarga erishish uchun maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini tabiat bilan tanishtirish, buning uchun esa bolalarni tabiat bilan o'zaro munosabatta bo'lishlarini ta'minlash lozim. Bolalarni tabiat bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari va uni to'laqonli anglashlari uchun bir qancha samarali usullar mavjud. Ushbu usullardan foydalanish asnosida, bolalarning biologik va shu qatorda ekologik bilimlarini ham oshirish mumkin. Ular quyidagilardir:

1. Ko'rgazmali (Kuzatish)
2. Amaliy
3. Og'zaki

Kuzatish usuli. Kuzatish jarayonida tafakkur va nutq ishtirok etadi. Kuzatishda qisqa muddatli va uzoq muddatli kuzatishdan foydalaniladi. Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar predmet va hodisaning xususiyati va sifati haqida bilimlari shakllanadi. Bolalar ularning shakli, tuzilishi, katta-kichikligi, rangi va shu qator belgilarini o‘rganadi (1-rasm). Hayvonlarni kuzatish jarayonida ularning harakatini, ulardan chiqadigan tovushni o‘rganadi ularni bir-biridan farqlaydilar. Uzoq muddatli kuzatishda esa o‘simlik va hayvonlarning o‘sishi va rivojlanishi kabi murakkab jarayonlarni o‘rganiladi. Kuzatishning bu ikki usuli maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining o‘rta va katta yoshli bolalarida o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu metod bolalarni tabiat haqidagi bilimlarini oshirish bilan birga ularning zehni va kuzatuvchanligini ham ortirib boradi.

Kuzatishning yana bir turi solishtirib kuzatishdir. Bunda o‘simlik yoki hayvonlar kuzatiladi va ular bir biriga solishtiriladi. Masalan, pishgan meva bilan pishmagan mevani, yorug‘likda o‘sgan o‘simlik bilan soyada o‘sgan o‘simlik o‘zaro solishtiriladi va ularni farqli belgilari o‘rganiladi. Kuzatish orqali bolalarning bilim va ko‘nikmalari yuqori darajada ortib boradi.



1-rasm. Yosh bolalarni tabiat bilan tanishtirish.

Amaliy usul. Bolarni tabiat bilan tanishtirishning ikkinchi usuli bu amaliy metoddir. Bu metodda o‘yin asosiy rol o‘ynaydi. Bu o‘yinlar tabiat bilan tanishishni yordam beribgina qolmay bolalarni sezuvchanlik tajribasini orttiradi. Ular egallagan ijodiy bilimlarini o‘zlashtiradi.

“Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim berishning asosiy turlaridan biri didaktik o‘yinlar hisoblanadi. Qiziqarli o‘yinlar tufayli bolalar tabiatni yanada yorqinroq tasavvur eta boshlaydi, tabiat elementlarini bir biri bilan solishtiradi va ularni tasniflaydi. Bolalar tabiiy dunyo haqida yangi ma’lumotlarni o‘rganadilar, jumladan, hayvonlar va o‘simliklar hayoti haqida, ularni bir biri bilan munosabatlari haqida bilib olishadi. Didaktik o‘yinlar orqali bolalarning tabiat haqidagi bilimlari bilan bir qatorda muloqot qobiliyatlari ham yaxshilanadi, xotira mustahkamlashadi, ijobiy hissiyotlar uyg‘onadi, fikrlash qobiliyati va nutq ravonligi yaxshilanadi” [4].

Bunday o‘yinlarning bir qancha turlari mavjud.

Harakatli o‘yinlar. Bu o‘yinlar hayvonlarni xatti-harakatlariga taqlid qilish orqali amalga oshiriladi. Bularga „Sichqon va mushuk“, „Ona tovuq va jo‘jalar“ shu kabi o‘yinlarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday tarzda boradigan o‘yinlar juda qiziqarli va samarali bo‘ladi.

Og‘zaki o‘yinlar. Bu o‘yinlarda hech qanday jihoz talab etilmaydi. Bunda bolalarga turli qiziqarli savollar beriladi. „Tabiat o‘zi nima?“, „Hayvonlar nima?“ va shu kabi savollar beriladi.

Tabiatdagi mehnat (2-rasm). Bolalarning tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat jarayonida bolalarga tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik, g‘amxo‘rlik munosabatlari shakllantiriladi va o‘simlik va hayvonlarni anglashga katta yordam beradi.



1-rasm. Yosh bolalarning tabiat qo‘ynidagi mehnat qilish jarayoni.

Bundan tashqari o‘simliklar va hayvonlarni turlarini bolalarga ko‘rsatishda turli ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa ularni biologik savodxonligini oshirish bilan birga ularni tabiatga bo‘lgan muhabbatini ham oshiradi.

Og‘zaki usul. Ushbu metod ham bolalarni tabiat bilan tanishtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda tarbiyachining hikoyasidan, tabiat haqidagi badiiy kitoblar o‘qishdan, tabiatga doir suhbatlardan foydalaniladi. Bolalarga turli maqsadlarda: ularga tabiiy hodisalar, o‘simlik va hayvonlar haqidagi bilimlarini kengaytirish maqsadida yangi hodisalar, faktlar haqida hikoya qilib berish mumkin. Bunday holda hikoya albatta ko‘rgazmali qurollar-fotosuratlar, rasmlar, diafilmlar ko‘rsatish bilan birga olib boriladi. Hikoyalar qiziqarli va bolarni diqqatini torta oladigan bo‘lishi zarur.

Badiiy adabiyotni o‘qish. Bolalar adabiyotida tabiat turli badiiy vositalar yordamida ifodalanadi. O‘z mazmuniga ko‘ra tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtda muhim ahamiyatga egadir. Uning xususiyati mana shundadir. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga qiziqishni, kuzatuvchilikni, bilimga bo‘lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi. U bolalar oldiga yangi savollarni qo‘yadi, bolalarni atrofidagi tabiatga diqqat bilan qarashga majbur qiladi.

Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachilar uchun katta qiymatga egadir. U kuzatilayotgan joydan chetga olib chiqadi va shu orqali bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi, bolani bevosita idrok etolmaydigan hodisalar bilan tanishtiradi. Kitob yordamida boshqa iqlim zonalaridagi tabiat hodisalari, hayvon va o‘simliklarning hayoti haqida bilish, predmet va hodisalar haqidagi mavjud tasavvurlarni aniqlash hamda konkretlashtirish mumkin. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda jonsiz tabiat hodisalarini ochib beradi, tabiatda mavjud bo‘lgan aloqa va munosabatlarni aniqlashga yordam beradi. Bunda Po‘lat Mo‘min, Ilyos Muslim va Quddus Muhammadiylarning tabiat haqidagi she‘rlari, ertaklaridan ham keng foydalanish mumkin. Tabiatshunoslik kitobidan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan bo‘ladigan ishda turli maqsadlarda foydalaniladi. Bolalar oldiga vazifa qo‘yish, bo‘lajak kuzatishga qiziqish uyg‘otish uchun kuzatishdan oldin kichik hikoya, ertak aytib berish mumkin.

Yuqorida ta’kidlangan usullardan tashqari bolalar uchun jonli tabiat burchaklarini tashkil etish ham ularni biologik bilimlarini yanada oshirishga va o‘simlik va hayvonot dunyosini parvarishlashni o‘rganishga imkon beradi. Tabiat burchagidagi o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish natijasida bolalarda tabiatga bo‘lgan mehr va muhabbat hissi yanada ortib boradi (3-rasm). Bu esa har bir bolani tabiatni asrashga, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga undaydi. Bu ham samarali usullardan biridir.



3-rasm. Yosh bolalar tomonidan jonli tabiat burchaklaridagi o‘simlik va hayvonlarni parvarishlash jarayoni

Yuqorida ta’kidlangan usullardan foydalanib mashg‘ulotlarni tashkil etish bolalarda tabiatni asrashga, hayvonot va o‘simlik dunyosini anglashga yordam beribgina qolmay, ularni ongini rivojlantirishga, fikrlash doirasini kengaytirishga, nutqini rivojlantirishga va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshishiga sabab ham bo‘ladi. Bu esa o‘sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk kamol topishiga yordam beradi. Har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodga yetarli bilim va ko‘nikmalarni bersakkini biz kutilgan natijaga erishishimiz mumkin. Biz ularga biologik hamda ekologik bilimlar berish orqali kelajakda yuzaga keladigan turli muammolarni oldini olishimiz va tabiatni asrab qolishimiz mumkin.

IQTIBOSLAR

1. Cesar Paul Gonzalez. Mass Extinctions: Find out How Many Species May Disappear by 2100. 22 March, 2023 y. <https://myanimals.com/latest-news/mass-extinctions-find-out-how-many-species-may-disappear-by-2100/>

2. QORIYEV Mirzohid Rustamjonovich, XABIBULLAYEVA Mushtariy, & IBROXIMOV Tursunboy. (2023). GLOBAL IQLIM ISISHINI O‘SIMLIKLAR VEGETATSIYASIGA TA’SIRI. ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ, 4(4), 10–14. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7810299>

3. Topvoldiyeva, Z.R. Yosh avlodni tarbiyalashda tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati // Молодой ученый. — 2020. — № 5 (295). — С. 370-371. — URL: <https://moluch.ru/archive/295/67057/>

4. Ergasheva T. МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ҚИЗИҚАРЛИ О‘ЙИНЛАР YORDAMIDA ЕКОЛОГИК ТА’ЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ // Экономика и социум. – 2022. – №. 5-2 (92). – С. 84-87.

5. Rustamjonovich, Qoriyev Mirzohid, Ubaydullayeva Muhlisa Ma’Murjon Qizi, and Abdulxaqova Shodiyona Kamoliddin Qizi. "МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИНГ ЕКОЛОГИК САВОДХОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ЖОНЛИ ТАБИАТ БУРЧАКЛАРИНИНГ О‘РНИ." *Research Focus* 2.1 (2023): 487-490.

6. Ibroimov, Sherzod Ibroim Ogli, and Munisa Maxkambayevna Fatxullayeva. "МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI ТАБИАТ БИЛАН ТАНИСHTIRISH." *Academic research in educational sciences* 2.10 (2021): 1148-1157.

7. G‘ulomov P.N. Inson va tabiat. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2009. – 84 b.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 4-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz